

Musulmonova Sarvinoz Olim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so‘zning adabiy jarayondagi roli, uning ruhiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Jahon adabiyotidagi mashhur adiblar asarlari orqali so‘zning qay darajada mukammal tahlil vositasi ekanligi, inson qalbiga qanday ta’sir etishi va hayot jozibalarini mukammal darajada birlashtirishi ko‘rsatib o’tiladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z san’ati, tovush, jahon adabiyoti, ma’naviyat, obraz, badiiy til, hadis, Jaloliddin Rumi, Uilyam Shekspir, “Hamlet”, Nodar Dumbadze, Antuan de Sent Ekzyuperi, “Kichkina shahzoda”, “Gulliverning sayohatlari”.*

Abstract: This article analyzes the role of the word in the literary process, its impact on spiritual, moral and cultural values. Through the works of famous writers in world literature, it is shown how perfect a tool for analysis is the word, how it affects a person and improves the charms of life.

Keywords: word art, sounds, world literature, spirituality, image, artistic language, hadith, Jalaluddin Rumi, William Shakespeare, "Hamlet", Nodar Dumbadze, Antoine de Saint-Exupéry, "The Little Prince", "Gulliver's Travels".

Аннотация: В статье анализируется роль слова в литературном процессе и его влияние на духовные, нравственные и культурные ценности. Произведения известных писателей мировой литературы показывают, насколько совершенным инструментом анализа является слово, как оно способно влиять на человека и совершенствовать прелести жизни.

Ключевые слова: словесное искусство, звуки, мировая литература, духовность, образ, художественный язык, хадисы, Джалалуддин Руми, Уильям Шекспир, «Гамлет», Нодар Думбадзе, Антуан де Сент-Экзюпери, «Маленький принц», «Путешествия Гулливера».

Insoniyat tarixida eng qadimiy va qudratli vositalardan biri bu – so‘zdir. So‘z bir inson fikrini o‘zgasiga yetkazishga ko‘mak beradi, qalbdagi kechinmalarni va hissiyotlarni bazan jozibali, bazan qo‘pol tarzda ifodalaydi, jamiyat tafakkurini shakllantiradi. So‘z bilan yuraklarni eritish, insonni biron bir ishga ruhlantirish, unga umid bag‘ishlash mumkin. Shu bilan birga, so‘z bilan ko‘ngillarni og‘ritish, tushkunlikka tushirish yoki hatto urushlarni boshlash ham mumkin. Demak, so‘z oddiy tovushlardan iborat emas, balki unda ma’no, his-tuyg‘u va kuch mujassamdir. Islomiy ta’limot ham so‘zning ahamiyatiga katta urg‘u bergen.

Hadislarda ham so‘zning kuchi haqida ko‘plab ibratli hikmatlar kelgan: Payg‘ambarimiz dedilar: “Kim Allohma va oxirat kuniga imon keltirgan bo‘lsa, yaxshilik gapirsin yoki sukut saqlasin.” (Imom Buxoriy va Imom Muslim rahimahumalloh rivoyatlari). Bu hadisdan insonning so‘zlarida yaxshilik va foyda bo‘lishi kerakligini anglash mumkin. Yomon va zararli so‘zlar aytishdan ko‘ra sukut saqlash afzalroq.

Yana bir hadisi sharifda shunday deyiladi: “ Bandalar ba’zan o’zlari bilmagan holda Allohnning roziligidagi sabab bo‘ladigan bir so‘z aytib qo‘yadilar va natijada Alloh ularni jannatga kiritadi.

Lekin ba’zan o’zlari sezmagan holda Allohnning g‘azabini keltiradigan so‘z aytib qo‘yadilar va natijada jahannamga tushadilar.” (Imom Buxoriy rahimahulloh rivoyatlari). Bu hadisi sharif so‘zlarning oqibatiga diqqat qilish kerakligini eslatadi. Har bir aytilgan gap inson taqdirliga ta’sir qilishi mumkin.

Jaloliddin Rumiyning quyidagi ma’noli so‘zlariga e’tibor qaratsak: “So‘z Haqning soyasi... Insonni soya o‘ziga tortar ekan, unda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi. Har narsaning asli – so‘z... So‘z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug‘iladi. Ulug‘ Tangri olamni so‘z bilan yaratdi va “bo‘ll!” deyishi bilan bo‘ldi... So‘z insonning qiymati qadar qadrlidir”.

So‘zning sehrli kuchi, avvalo, uning ma’naviy ta’sirida namoyon bo‘ladi. Misol uchun, Uilyam Shekspir asarlarida so‘z insoniyatning eng chuqur tuyg‘ularini ochib beradi: muhabbat, nafrat, xiyonat, sadoqat.

Ushbu asar ya‘ni “Hamlet” tragediyasi falsafiy teranligi, personajlar ichki ziddiyatlarining murakkab ifodasi va tilning badiiy imkoniyatlaridan keng foydalanilishi bilan ajralib turadi.

Ushbu tragediyada so‘z vositasi orqali haqiqat va yolg‘on, mavjudlik va yo‘qlik, vijdon va harakatsizlik singari mavzular chuqur yoritiladi.

Uning “Hamlet” tragediyasidagi “Bo‘lish yoki bo‘lmaslik” iborasi butun dunyoda hayot va o‘lim haqidagi falsafiy mulohazalarning ramziga aylangan.

Bu monologda so‘z oddiy fikr emas, balki ichki ruhiy holatning ko‘zgusiga aylanadi. Shekspir asarda tilning kuchini ko‘rsatib beradi: birgina so‘z yoki gap voqealar oqimini o‘zgartirishi, inson taqdirlini hal qilishi mumkin.

Masalan, Hamletning otasining sharpasi unga “qasos ol” degan so‘zlarni aytadi va shu orqali butun tragediya harakati boshlanadi.

Asarda so‘z ko‘p hollarda haqiqat va yolg‘on orasidagi noaniq chegaralarni ochib beradi. Poloniyning maslahatchi sifatidagi so‘zlar ko‘pincha bezakli, lekin mazmunsizdir.

Gertruda va Klaudiyning so‘zlar esa ba’zida haqiqatni yashirishga xizmat qiladi.

Hamlet esa, aksincha, so‘z orqali ichki kechinmalarini ochib beradi, ayni paytda boshqa personajlarning so‘zlarining chinligini shubha ostiga oladi. Shekspirning “Hamlet” asarida so‘z oddiy muloqot vositasi emas, balki obrazlarning ichki dunyosini, asarning falsafiy qatlamlarini ochib beruvchi asosiy quroldir.

Nutq va so‘zlar orqali personajlar o‘zaro aloqada bo‘ladi, o‘zlarining niyatlarini yashiradi yoki ochib beradi, shuningdek, o‘zini anglash yo‘lida kurashadi. Asar Shekspir ijodining eng teran namunasi sifatida tilning san’atdagi o‘rnini yuksak darajada yoritadi.

Gruzin adabiyotining yorqin namoyandas Nodar Dumbadze o‘z asarlarida samimiyyat, insonparvarlik va hayot falsafasini chuqur ifoda etgan yozuvchidir. Uning “Hellados” asari – tarix, falsafa va adabiyot chatishgan badiiy makon bo‘lib, unda so‘zning kuchi va ahamiyati markaziy o‘rinda turadi.

So‘z – bu nafaqat aloqa vositasi, balki ruhiy ozodlik, ma’naviy qaror va ichki haqiqatni anglash vositasidir. “Hellados” asaridagi personajlar o‘z taqdirlarini tushunish, mavjud vaziyatga munosabat bildirish va ma’naviy yo‘nalishni belgilashda so‘zdan foydalanadilar.

Dumbadze o'ziga xos tarzda badiiy til va obrazlar vositasida haqiqatni anglash jarayonini tasvirlaydi. Qahramonlar og'zidan chiqqan har bir so'z ularning ichki dunyosidan, ruhiy kechinmalaridan darak beradi. Asarda so'z ko'p hollarda haqiqatni ochish yoki uni yashirish quroli sifatida namoyon bo'ladi.

Qahramonlar ba'zan so'z orqali o'zini himoya qiladi, ba'zan esa yolg'on so'zlar jamiyatdagi haqiqat urug'larini so'ndirishga xizmat qiladi. Dumbadze bu jarayonni tasvirlash orqali o'quvchini so'zning axloqiy mas'uliyatini anglashga chorlaydi. "Hellados" bu faqat shaxsiy hikoya emas, balki butun bir xalqning tarixiy xotirasi va iztiroblarini o'zida jamlagan asardir.

Unda so'z orqali tarixiy haqiqatlar, milliy g'urur, insoniylik va adolat talqin qilinadi. Har bir bayon, har bir monolog yoki dialog bu xalq ruhining ovozidir. Dumbadzening "Hellados" asarida so'z markaziy badiiy element sifatida harakat qiladi.

Bu so'zlar orqali muallif inson qalbidagi eng nozik kechinmalarni ohib beradi, jamiyatdagi muammolarni fosh etadi va o'quvchini o'ziga xos ruhiy safarga chorlaydi.

So'z - bu haqiqat, ruhiy najot va adabiy haqiqat. Asarda so'zning bunday darajadagi ahamiyati Dumbadzeni o'z davrining eng chuqur adiblaridan biriga aylantiradi.

Fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari bilan tanisha turib, unda bolalarga xos beg'uborlik, soflik va samimiylikni tuyasiz. "Kichkina shahzoda" asari bolalar uchun yozilgandek tuyulsa-da, aslida unda kattalar hayoti, insoniylik, javobgarlik va muhabbat haqida chuqur falsafiy mazmun yotadi.

Asarda so'z - insonlar o'rtasidagi muloqot, tushunish va tushuntirish vositasi sifatida markaziy o'rinni egallaydi. So'zlar orqali muallif o'z qarashlarini nafaqat hikoya shaklida, balki ramziy ifodalar orqali ham yetkazadi. Asar tarkibidagi barcha voqealar bir qarashda oddiy ertak kabi yozilgandek tuyuladi.

Ammo bu asar yozuvchining so'z san'atini yuksak darajada qo'llay olishi sababli unda chuqur falsafiy qarashlar aks etganiga guvoh bo'lamiz. Bunda sharq adabiyotiga xos ramziylik va didaktik an'anlarni uchratish mumkin. Asarning boshlanishida Ekzyuperi "men bu asarni katta yoshdag'i odam uchun bag'ishlaganimga bolalardan kechirim so'rayman" - deydi. Demak, biz bu asarni oddiy sarguzasht yoki ertak sifatida qabul qilmasligimiz lozim ekan.

Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarida so'z - insoniy munosabatlarning markazida turadi. So'z bu yerda faqat aloqa vositasi emas, balki ma'naviy yaqinlik, hissiy bog'lanish va hayot falsafasini anglashning asosiy kalitidir. Muallifning tilga bo'lgan yondashuvi chuqur ramziy va axloqiy mazmunga ega hisoblanadi.

Gulliverning sayohatlari – Jonathan Swift tomonidan yozilgan asar. Bu roman satiriko-fantastik janrida yozilgan. Asarning to'liq nomi "Lemyuel Gulliverning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari" hisoblanadi. Asarda til va so'z mavzusi chuqur tahlil qilinadi va so'z insoniyat hayotida qanchalik muhim o'rinni egallashi namoyon qilinadi. Asar qahramoni Lemuel Gulliver turli o'lkalarga sayohat qiladi.

Har bir sayohat o'ziga xos ramziy ma'noga ega bo'lib, u orqali muallif zamonasining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarini tanqid qiladi. Ayniqsa, Laputa orolida yashovchi olimlarning "tilni isloh qilish" bo'yicha olib borayotgan ishlari orqali Swift so'zning mohiyatini chuqur tahlil qiladi.

Laputada olimlar so‘z o‘rniga narsalarni o‘zlari bilan olib yurishni taklif qilishadi. Bu g‘ayrioddiy va kulgili g‘oya aslida chuqur ma’noga ega: Swift bu orqali so‘zsiz jamiyatning qanday ahmoqona holatga tushishini ko‘rsatadi. So‘z – bu tafakkur, ifoda va muloqot vositasi. Insoniyat taraqqiyoti, madaniyati va ilm-fani aynan so‘z orqali rivojlangan. So‘z yo‘q joyda fikr almashinushi, tushunish, anglash va taraqqiyot bo‘lmaydi.

Asarda so‘zning to‘g‘ri va mukammal foydalanishi orqali asar mazmuni yanada yorqinroq ochib berilgan. Asardagi har bir tasvir vositasi so‘zning nafaqat muloqot, balki ijtimoiy boshqaruvdagi ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Swift haqli ravishda so‘z qudratini tan oladi va uni to‘g‘ri, adolatlari ishlatish zarurligini ta’kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, “Gulliverning sayohatlari” asarida so‘z nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatni birlashtiruvchi, tafakkurni ifoda qiluvchi, insoniyat taraqqiyotini ta’minlovchi muhim hodisa sifatida tasvirlangan. Jonatan Swift o‘zining satirik uslubida, kulgi orqali, so‘zning asl mohiyatini ochib beradi .

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, so‘z san’ati – bu nafaqat til, balki ta’sir, sezgi, ma’no va obrazlar orqali o‘quvchini ruhiy sayohatga olib chiqadigan vositadir. So‘z – bu oddiy vosita emas, balki sehr, qudrat, ilhom va ruh. Juhon adabiyotida so‘zning bu qudrati yozuvchilarining qalbidan chiqib, o‘quvchilar qalbiga yetib boradi.

Har bir adib so‘z orqali o‘z zamonasini, millatini, dunyoqarashini aks ettiradi. Shu boisdan, jahon adabiyotini o‘rganish bu so‘z sehrining cheksiz imkoniyatlarini anglash va so‘zdan to‘laqonli foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://yuz.uz/uz/news/soz-sehriga-oshuftalik-zavqi>
- 2.<https://hidoya.uz/uz/news/1820>
3. Dumbadze, N. Hellados. – Tbilisi: Sabchota Sakartvelo, 1987. – 256 b.
4. Shakespeare, W. Hamlet, Prince of Denmark. – London: Penguin Classics, 2005. – 342 p.
5. Антуан де Сент Экзюперининг “Кичкина шахзода”//Янги аср авлоди-Тошкент, 2019
- 6.https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/08/conf_19_2020/8.Adabiyot_1_qism.pdf